



ISSN (E): 2181-4570

SAVOD O'RGATISH METODLARIGA QIYOSIY-TANQIDIY TAHLIL

Atamurodova Qunduzoy G'aniyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kefedrasi
o'qituvchisi

atamurodovaqunduzoy@gmail.com

Sattorova Fazilat Xolmurod qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi


fazilatsattorova54@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqolada savod o'rgatish, uning vazifalari, savod o'rgatish metodlari, o'zbek tilining tovush tuzilishi va grafikasi, o'qish va yozishga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: o'qish, bo'g'in-tovush tahlili, tovush-harf tahlili, bo'g'inlab o'qish tamoyili, bo'g'inga bo'lish, o'qish, yozish, savod o'rgatish, metod, alifbe, bo'g'in, hijo usuli, harfiy metod, abjad, tovush metodi, madrasa, anlitik-sintetik tovush metodi.

Savod o'rgatish deganda biz, maktabga ilk qadam qo'ygan, hali yozishni, o'qishni bilmaydigan o'quvchilarga harf tanish, o'qitish va yozishni o'rgatishni tushunamiz.

O'quvchilarga savod o'rgatish o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:






Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun bolalarda partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni qiyalikda qo'yish kabi faoliyat turlari ham o'rgatiladi. Milliy o'quv dasturida har bir sinf bitiruvchiligini hisobga oladigan bo'lsak, unda 1-sinf o'quvchilariga quyidagicha talab qo'yiladi:

Og'zaki nutq

- OTMT.1.NK.ON.1 unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;
- OTMT.1.NK.ON.2 x va h, o' va u tovushlarini og'zaki nutqda farqlash (dasturda berilgan matnlar asosida); tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish,
- OTMT.1.NK.ON.3 so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish);
- OTMT.1.NK.ON.4 rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
- OTMT.1.NK.ON.5 o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish;
- OTMT.1.NK.ON.6 matnni qayta bayon qila olish.

Savod chiqarish va yozma nutq

- OTMT.1.NK.YN.1 fikr ifodalashda bir-biriga o'xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish;





- OTMT.1.NK.YN.2 yozma nutqda x va h harflarini to'g'ri qo'llash;
OTMT.1.NK.YN.3 bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilish;
OTMT.1.NK.YN.4 husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda
15– 20ta so'zdan iborat diktant yozish;
OTMT.1.NK.YN.5 yil davomida o'rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va
ularni to'g'ri yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.6 berilgan rasm asosida, odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab,
2–3ta gap tuzib yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.7 turli mavzularda tabriknoma yoza olish.


Anglash

O'qish va tushunish

- OTMT.1.NK.A.O'T.1 harflarning bosma va yozma shakllari muvofiqligi va farqlarini
ajratgan holda o'qish va tushunish;
OTMT.1.NK.A.O'T.2 o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z va
birikmalarning ma'nosini anglash;
OTMT.1.NK.A.O'T.3 darslikda berilgan lug'atdan foydalana olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.4 matn yuzasidan savollar bera olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.5 matn tafsilotlarini aniqlashtirish uchun savollarga javob bera
olish (Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun? Qanday
qilib? kabi);
OTMT.1.NK.A.O'T.6 o'qilgan ertaklarning xulosasini ayta olish.

Tinglab tushunish

- OTMT.1.NK.A.TT.1 tinglangan tovushlarni o'zaro farqlash va harflarga moslashtira
olish;
OTMT.1.NK.A.TT.2 suhbatlashish qoidalariga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish,
so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash);
OTMT.1.NK.A.TT.3 xabar, buyruq, so'roq ohanglarini farqlash;
OTMT.1.NK.A.TT.4 berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.5 jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va
g'oyasini ayta olish.





Ushbu talablarni bajarish uchun savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unililardan boshlanadi. O'zbek tilida 6ta unli fonema bor: a, e, i, o, u, o'. Bu jarayonda har bir unli harf yozilishi, talaffuzi, xususiyatlari o'quvchilarga o'rgatiladi. Unlilardan keyin undosh tovushlar tanishtiriladi. O'zbek tilida 24ta undosh tovushi bor. Yozuvda esa 23ta harf bilan ifodalanadi: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (jo'ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng. Shulardan 3tasi harf birikmasi (sh, ch, ng), 21tasi yakka harf hisoblanadi. Unlilarni ham, undoshlarni ham o'rgatishda muayyan tartibga va talabga asoslanadi.

Eski maktablarda o'qish va yozish bir vaqtda o'rgatilmagan. Avval o'qishni o'zi o'rgatilgan. O'qish hijo ya'ni bo'g'in usuli bilan o'rgatilgan. Hijo usulida o'qishga o'rgatishni 3bosqichda amalga oshirish mumkin:


1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish. Bu bosqichni "harfiy metod" ham deyish mumkin. Avval yangi kelgan bolalarga kichik-kichik suralar og'zaki yodlatilgan. Bolalar suralarning ma'nolarini tushunmay yod olishgan. Kichik suralar yodlatilgandan so'ng, arab alifbosi yodlatilgan.

2-bosqich. Bo'g'in hosil qilish (zer-u zabardan bo'g'in hosil qilish). Harflar nomi yodlangach, bo'g'in hosil qilishga, ya'ni "zer-u zabar" ni o'rgatishga o'tilgan. Zabbar (fatha) — undoshga a tovushini qo'shib o'qish kerakligini bildiradi, u harf ustiga chiziqcha shaklida yoziladi. Zer (kasra) — undoshga i tovushini qo'shib o'qish kerakligini bildiradi, u harf ostiga chiziqcha shaklida yoziladi. Pesh (zamma) — undoshga u tovushini qo'shib o'qish kerakligini bildiradi, u undosh harf ustiga qo'yiladigan undov belgiga o'xshab yoziladi.

3-bosqich. Bo'g'inlarni qo'shish. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga 28harf jamlangan 8ta so'zni yozib beradi. Masalan, abjad (أَبْجَد) so'zida alifga zabbar qo'yib (أ), bega urushtirilsa (ب), jimga zabbar qo'yib (ج), dolga urushtirilsa jad (د) hosil bo'ladi. Bularni ikkisini qo'shsa, abjad (أَبْجَد) so'zi hosil bo'ladi.

"Turkistonda taxminan XIX asrning ikkinchi yarmida ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy natijaga erishdi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbosi — "Ustodi avval" nashr etildi.

"Ustodi avval" qo'llanmasi 3bo'limdan iborat. Ular:





1-bo‘lim: Alifbe bo‘limi. Muallif bu bo‘limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini, harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e‘tiborga olgan holdatizib chiqqan.

2-bo‘lim: Alifbedan keyingi davr. Bu bo‘limda hikoya, masal va 50maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim olish targ‘ib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda bo‘lgan.

3-bo‘limi: “Alifboi Qur‘on” deb atalgan. Mazkur bo‘limda bolalarga islom dinining muqaddas kitobi “Qur‘on Karim”ni tushunib o‘qishga o‘rgatishni maqsad qilib qo‘ygan.”¹

Savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodiga rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan. Analitikda yaxlitdan maydaga, sintetikda maydadan yaxlitga o‘tiladi. Analitik mashqda nutq gaplarga, gap so‘zlarga, so‘z bo‘g‘inlarga, bo‘g‘in tovushlarga bo‘linadi: gap — so‘z — bo‘g‘in — tovush. Sintetik mashqda tovushlardan bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan bog‘lanishli nutq hosil qilish haqida tushuncha beriladi.

Xulosa qilib aytganda, savod o‘rgatish jarayonida analitik-sintetik metodi o‘quvchilarni faol mustaqil fikrlashga undaydi, o‘quvchilarda kuzatuvchanlikni oshiradi, ziyraklikni o‘stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S. Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI 5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishidagi talabalar uchun darslik Toshkent 2019

2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharafjon Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent “ Noshir” nashriyoti 2009.

3. “Ona tili” Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi. Respublika ta‘lim markazi 2022.

¹ Karima Qosimova ,Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva,Sharafjon Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent “ Noshir” nashriyoti 2009. 26-bet.





4. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.

5. Rustamovich T. A. Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 186-190.

6. Rustam o'g A. T. et al. Milliy o'quv dasturining hayotimizdagi o'rni //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 88-93.

7. Rustam o'g A. T. et al. XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 94-100.

8. Rustam o'g A. T. et al. Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 101-109.


9. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Xurramova Aziza Abdurasul qizi. (2023). XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 94–100. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/618>

10. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Abdullayeva Xumora O'tkirbekovna. (2023). TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 503–508. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/694>

11. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Choriyeva Diyora Muhiddinovna. (2023). Boshlang'ich ta'limda tarbiya metodlari. Journal of Universal Science Research, 1(5), 509–512. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/695>

12. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA'LIMOTLARI . Journal of Universal Science Research, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665>

13. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Sapparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDAGI MA'NAVIY-AXLOQIY





QARASHLARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

14. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>

